
MAHALLALARDA TADBIRLAR DAVOM ETMOQDA



“Eshonguzar” mahallasidagi 49-umumta’lim maktabida “Qonunlarni hurmat qilaman va unga amal qilaman” shiori ostida davra suhbatlari o‘tkazildi.

Tadbirda tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Mo‘ydinova hamda mahalla targ‘ibotchilar guruhi a‘zolari, xotin-qizlar jamoatchilik kengashi vakillari qatnashdilar.

Suhbatga maktab ichki tartib qoidalariga rioya qilmayotgan qizlar jalb etildi.

Tadbir davomida yoshlarni ta’lim tarbiya olib mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishlari va jamiyat rivojida yetakchi kuchlardan biriga aylanishlari uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, begilab berilgan imtiyozlar, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning mazmun mohiyati va ahamiyati, ta’lim to‘g‘risidagi qonun, xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilab berilgan umumta’lim maktablarining ichki tartib qoidalarini to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.



Konstitusiyamizda belgilab berilgan huquq va majburiyatlarimizdan biri belgilangan ichki tartib-qoidalarini hurmat qilish ekanligi tushuntirildi.

Shuningdek, “Sarmazor”, “Quvurboshi”, “Xumdon”, “Baland masjid” mahallalarida bo‘lib o‘tgan tadbirlarda tibbiyot sohasining mutaxassislari va tibbiy maslahatga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlar ishtirok etishdi.

Suhbat davomida bugungi kunda xotin-qizlar orasida uchrayotgan ko‘krak bezi saratoni va boshqa kasalliklar, ularni davolash yo‘llari haqida mutaxassislarning maslahatlari eshitildi.

Tadbir so‘ngida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga soha mutaxassislari tomonidan javob va tavsiyalar berildi.

Qo‘sh tepa tumani hokimligi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-09-18 18:15:14